

---

## YANGI YIL YARMARKALARIGA MARHAMAT

Yangi yil bayrami munosabati bilan viloyatimizning barcha hududlarida bo'lgani kabi Qo'shtepa tumanida ham aholi sergavjum joylarda qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlarining savdo yarmarkalari tashkil etildi.

Ayniqsa, tumanning Markaziy dehqon bozorida tashkil etilgan yarmarkada oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi hamda go'sht mahsulotlari aholiga arzonlashtirilgan narxlarda sotilmoqda.



---

Bayram oldidan bunday savdo yarmarkalarining tashkil etilishi, aholimizning dasturxonini to'kin-sochin bo'lishini ta'minlaydi. Bunday qulaylikdan albatta aholi mamnun.



---

Shuningdek, pandemiya davrida aholining bayramoldi kayfiyatini ko'tarish maqsadida tuman hokimligi va dehqon bozori ma'muriyatining tashabbusi bilan haftaning payshanba va yakshanba kunlari archa atrofida teatrlashtirilgan ko'rinishlar namoyishi bo'lib o'tmoqda. Albatta bu tadbirlar tumanimiz aholisini bayramni ko'tarinki ruhda o'tkazishlari uchun tashkillandi.

**Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.**

2020-12-15 12:39:03